

330.5.054.7(043.3)
X-23

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI № DSc.03/30.01.2021.I.16.03. RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

XAMDAMOV SHOH-JAXON RAXMAT O‘G‘LI

**MILLIY IQTISODIYOTDA BARQAROR RIVOJLANISHNI
TA‘MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent — 2025 yil



Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Content of the doctoral (DSc) dissertation abstract

Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li Milliy iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish.....	3
Khamdamov Shoh-Jakhon Improving the methodology for ensuring sustainable development in the national economy.....	31
Хамдамов Шох-Жахон Рахмат угли Совершенствование методологии обеспечения устойчивого развития национальной экономики.....	57
E'lon qilingan ishlar ro'yxati List of the publications Список опубликованных работ.....	63

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Iqt523 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriladi.

Ilmiy maslahatchi:

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdurahmonov Qalandar Xodjaevich
akademik, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.1.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "19" 08 kuni soat 10:20 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~174~~ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "04" 08 da tarqatildi.

(2025-yil "04" 08 dagi 80 raqamli reyestr bayonnomasi)



KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotidagi sifat o'zgarishlari, ayniqsa raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalari ustuvorligi sharoitida iqtisodiy o'sishda ijtimoiy va ekologik barqarorlikni "yashil iqtisodiyot" va "yashil energiya"ga ko'ra ta'minlash muhim mazmun kasb etmoqda. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra "global iqlim o'zgarishlari hisobiga 2050-yilga borib global yalpi ichki mahsulotning hajmi 3,3% ga kamayishiga sabab bo'ladi. Yoqilg'i-energiya karbon emissiyasi 2025-yilda taxminan 39 milliard tonna karbonat angidrid (GtCO_2) ajratilishi prognoz qilinmoqda. Milliy darajalarda joriy qilinayotgan yashil energiya manbalari hisobiga keyingi yillarda ular doimiy ravishda kamayib borishi va 2030-yilga kelib 37,4 milliard tonnagacha tushishi kutilmoqda"¹. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyasida milliy iqtisodiyotlarni barqaror rivojlantirishda "yashil iqtisodiyot" va "yashil energiya"ga jadal o'tish dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda makroiqtisodiy yo'nalishlarda bajarilayotgan tadqiqotlar tarkibida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni uyg'un holda ta'minlashga bag'ishlangan loyihalar ustuvor darajada bajarilmoqda. Bu borada, jumladan quyidagi mavzulardagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda: "yashil iqtisodiyot" va "yashil energiya"ga jadal o'tishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish (takomillashtirish); global ekologik tahdidlar, tengsizlik va qashshoqlik kabi ijtimoiy muammolarni hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning uslubiy asoslarini takomillashtirish zarurligini taqozo etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati aholining munosib turmush sifatini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu borada ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni uyg'un ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. "...Barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish, sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish, gender tenglikni ta'minlash, arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta'minlash, barqaror infratuzilmani yaratish, iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo'yicha tezkor choralarni qabul qilish"² kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish bo'yicha amaliy ahamiyatga molik muammolar tadqiqi bilan bir qatorda uning ilmiy-nazariy va metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030 Strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

¹<https://www.statista.com/statistics/1385434/>

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida 21.02.2022-yildagi 83-son qarori.

Annotatsiya "Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi" jurnali tahririyati
tomonidan tahrir qilingan.



MUHARRIRIYAT VA NASHRIYOT BO'LIMI



Bosishga ruxsat etildi: 14.08.2025-yil.
Bichimi 60x84 ^{1/16}, "Times New Roman"
garniturada raqamli bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 4.5. Adadi: 100. Buyurtma: № 79.
Tel (99) 817 44 54.
Guvohnoma reyestr № 219951
"PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nashriyotida bosildi.
Toshkent sh., Uchtepa tumani, Ali qushchi ko'chasi, 2A-uy.